Формирование человеческого капитала в условиях демографических изменений: опыт и перспективы для узбекистана.....	955
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
Farmasevtika kompaniyalari raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish yo'nalishlari	962
Baxrombek Bobojonov	
“Hududlarda sug'urtaga bo'lgan talabning ekonometrik tahlili”	967
Bekberganova Mohira Ravshonbekovna	
O'zbekiston va xalqaro amaliyotda raqamli marketing vositalaridan foydalanish: muammolar va yechimlar	973
Uzoqova Dilnoza Yusuf qizi	
Условия эксплуатации и экологическая безопасность автотранспортной системы на основе энергосберегающих технологий	978
Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна	
O'zbekiston tibbiyot muassasalarida moliyaviy resurslardan foydalanishda xorijiy tajribalarni qo'llash.....	982
Elmurodov G'ayratjon Abdumurodovich	



Buxgalteriya hisobining samaradorligini oshirish yo'llarida zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar	987
Sattorov Mirjahon	
Особенности маркетинговых стратегий в условиях ограниченных ресурсов и узкой потребительской аудитории	991
Дебердиев Анвар	
DEbitorlik va kreditorlik qarzlarini auditini rejalashtirish masalalari.....	995
Tulovov Erkinjon To'liqin o'g'li, Ibragimova Iroda Rashid qizi	
Инвестиционная программа узбекистана по привлечению иностранных инвестиций	1000
Камилова Наргиза Абдукахоровна, Бекмуратов Шухрат Даулетмуратович	
Turistik mahsulotni shakllantirishda turistlar hayoti xavfsizligini ta'minlash.....	1005
Raxmonov Siyovush Turob o'g'li	
Uglerodsiz energiyaga o'tishda o'zbekistonning yashil strategiya yo'l xaritasining integratsiyasi va ta'siri.....	1011
Nuraliyeva Komila Sanakulovna	
Цифровая устойчивость регионов: применение аналитики больших данных для оценки и управления экологическими рисками	1016
Маликов Шохрух Шокирович, Камалов Шухрат Камалович	
Разработка риск-ориентированной модели внутреннего контроля предприятия на этапе планирования налогов в условиях дистанционного налогового мониторинга	1024
Галеева Н.Н., Э.А.Халикова, Абдусаломова Гулчеҳра Мирзо кизи	
Анализ результатов инструментальных методов исследований у детей с врожденными пороками сердца	1029
Мухаммадиева Лола Атамурадовна	
Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	1036
Uskenbaeva Dilnoza Boxodir qizi	
Факторы повышения эффективности управления в государственном секторе.....	1043
Махмудова Севара Улугбековна	
Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarning yangi tizimi sharoitida soliq nazorati	1048
Rajabbaeva Dildora Zakirovna, Aripova Aziza Alisherovna	
Boshqaruv jarayonlarini tashkil etishning xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1053
Jo'rayeva Niginaxonim Xursand qizi	
Jahonda eksportni qo'llab-quvvatlash amaliyoti.....	1057
Xudoynazarov Sherzod Ismoilovich	
Raqamli moliyaviy texnologiyalarni korxona darajasida joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish strategiyasi	1063
Soibov Nozimbek Faxridin o'g'li	
Применение методов PMBOK в управлении рисками проектов	1070
Гулираъно Носирова Абдулазиз кизи	
Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda aholi farovonligining o'rni va ahamiyati	1073
Bobaev Isroiljon Abdinabievich	
Вопросы инновационных инвестиций в контексте международной экономической интеграции	1078
Шарипов Бахтиёр Михлибаевич	
Yashil iqtisodiyotga o'tishning nazariy va amaliy jihatlar hamda tendensiyalari.....	1083
Samiyev Abdurashid Qaxramonovich, Shermuxammedov Begzodjon Usmonovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar samaradorligini ta'minlash yo'llari.....	1087
Nazarov Qilich Xolmuradovich	
Improving the organizational and economic mechanisms for the development of tourism in the republic of karakalpakstan	1092
Tleumuratov Baxadir Genjemuratovich	
O'zbekistonda tumanlar barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash yo'llari (Surxondaryo viloyati misolida).....	1097
Qosimova Nodira Saidovna	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosi sifatida innovatsiyalar.....	1102
Azizova Maliha Farrux qizi	



Влияние инвестиций на инновационное развитие и повышение конкурентоспособности экономики узбекистана	1106
Максудова Шахзода	
Возможности снижения затрат на логистику за счет цифровых технологий	1112
Олимова Бахора Шухратовна	
Yashil texnologiyalar va ularning iqtisodiy tizimga ta'siri.....	1116
Sultonov Omon Juma o'g'li	



YASHIL TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING IQTISODIY TIZIMGA TA'SIRI



Sultonov Omon Juma o'g'li

International School of Finance Technology and Science Instituti
Xalqaro va strategik masalalar bo'yicha rektor maslahatchisi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda yashil texnologiyalar va ularning iqtisodiy tizimga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotning maqsadi – yashil texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy va ekologik samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, bu texnologiyalarning iqtisodiy tizimga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashdan iborat. Yashil texnologiyalarni joriy etish orqali energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish mumkin. Tadqiqotda, shuningdek, yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan. O'zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyot asosida yashil texnologiyalarni tatbiq etish imkoniyatlari va cheklavlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yashil texnologiyalar, iqtisodiy tizim, ekologik barqarorlik, energiya samaradorligi, chiqindilarni kamaytirish, resurslarni tejash, barqaror rivojlanish, innovatsiyalar, iqtisodiy o'sish.

Abstract: This research explores the impact of green technologies on the economic system. The aim of the study is to analyze the economic and ecological efficiency of implementing green technologies and to assess their influence on the economy. The adoption of green technologies enhances energy efficiency, reduces waste, promotes efficient resource use, and ensures sustainable economic growth. The study also identifies challenges encountered during the implementation of green technologies and offers practical recommendations to overcome them. Based on Uzbekistan's experience and international practices, the research analyzes the opportunities and limitations of integrating green technologies.

Key words: green technologies, economic system, ecological sustainability, energy efficiency, waste reduction, resource conservation, sustainable development, innovations, economic growth.

Аннотация: В данном исследовании рассматривается влияние зелёных технологий на экономическую систему. Цель исследования – проанализировать экономическую и экологическую эффективность внедрения зелёных технологий, а также определить их воздействие на экономику. Внедрение зелёных технологий способствует повышению энергоэффективности, сокращению отходов, рациональному использованию ресурсов и обеспечению устойчивого экономического роста. Также в исследовании рассмотрены проблемы, возникающие при внедрении зелёных технологий, и предложены практические рекомендации по их решению. На основе опыта Узбекистана и международной практики проанализированы возможности и ограничения внедрения зелёных технологий.

Ключевые слова: зелёные технологии, экономическая система, экологическая устойчивость, энергоэффективность, сокращение отходов, рациональное использование ресурсов, устойчивое развитие, инновации, экономический рост.

KIRISH

Yashil texnologiyalar zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ularning ekologik barqarorlikni ta'minlash, resurslarni tejash va energiya samaradorligini oshirishdagi roli tobora muhimlashib bormoqda. Yashil texnologiyalar, o'z navbatida, iqtisodiy o'sishni ekologik jihatdan barqaror va uzoq muddatli qilishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalarni joriy etish, nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiy rivojlanishni davom ettirishda ham zarurdir. Bugungi kunda yashil texnologiyalarni rivojlantirish va ularni



iqtisodiy tizimga tatbiq etish, global miqyosda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim vositalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Yashil texnologiyalarning asosiy maqsadi - tabiat resurslaridan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, energiya tejash va tabiiy tizimlarning barqarorligini saqlab qolishdir. Bu texnologiyalar ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan birga, iqtisodiy tizimda yangi ish o'rinlari yaratish, energiya manbalarini diversifikatsiya qilish va sanoatni modernizatsiya qilish kabi iqtisodiy foydalarga ham ega. Shu bilan birga, yashil texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy tizimga ta'siri, ayniqsa, sanoat sohasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish orqali o'z aksini topadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi yashil texnologiyalar va ularning iqtisodiy tizimga ta'sirini o'rganishdir. Tadqiqotda yashil texnologiyalarni iqtisodiy tizimga tatbiq etish, resurslarni boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik jihatdan optimallashtirish va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha amaliyotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, bu texnologiyalarni rivojlantirishning iqtisodiy va ekologik foydalari va kutilgan natijalari hamda bu jarayonda yuzaga keladigan muammolar o'rganiladi.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Yashil texnologiyalarning iqtisodiy tizimga ta'sirini tahlil qilish;

Yashil texnologiyalarni rivojlantirishning iqtisodiy va ekologik samaradorligini aniqlash;

Yashil texnologiyalarni joriy etishdagi global va milliy tajribalarni o'rganish va ularning samaradorligini baholash;

Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun yashil texnologiyalarning roli va ularni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalari yashil texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy tizimni optimallashtirishdagi ahamiyatini, resurslarni samarali boshqarish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil texnologiyalar zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ular ekologik barqarorlikni ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda yashil texnologiyalarni iqtisodiy tizimga integratsiya qilish bo'yicha ko'plab nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Nicholas Stern (2006) o'zining "Stern Review on the Economics of Climate Change" nomli tadqiqotida yashil texnologiyalarni joriy etmaslik kelajakda iqtisodiy yo'qotishlarga olib kelishini ta'kidlagan. U yashil investitsiyalarni "kelajakni sug'urtalash" sifatida baholagan. OECD (2020) va UNEP (2022) hisobotlarida yashil texnologiyalarni kengaytirish orqali nafaqat ekologik holatni yaxshilash, balki yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyati qayd etilgan. OECD'ning "Green Growth Indicators" konsepsiyasi yashil texnologiyalarning iqtisodiy o'sish bilan uyg'unligini ko'rsatadi.

World Bank (2021) tomonidan taqdim etilgan "Greening Economies" hisobotida rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yashil texnologiyalarni joriy etishning strategik afzalliklari, xususan energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi manbalarni kengaytirish va karbon izini kamaytirish yondashuvlari tahlil qilingan. Porter va van der Linde (1995) o'z tadqiqotlarida ekologik innovatsiyalar (yashil texnologiyalar) raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilishi mumkinligini asoslab bergan. Ularning fikricha, ekologik samaradorlik ortidan texnologik samaradorlik keladi. L. Hojnik va M. Ruzzier (2016) yashil innovatsiyalar va ularning kichik va o'rta korxonalar (KO'K) iqtisodiyotidagi o'rnini o'rganib, yashil texnologiyalar samaradorligini o'lchash mezonlarini taklif qilgan. O'zbekiston hukumati so'nggi yillarda yashil iqtisodiyot va texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-iyundagi PQ-217-son qarorida "Yashil energiya"ni joriy etish, quyosh va shamol elektr stansiyalarini rivojlantirish, energiya samarador qurilmalarni ommalashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan. X. Xudoyberganov (2021) o'z ilmiy maqolalarida O'zbekistonda yashil texnologiyalarni ishlab chiqarish tizimiga integratsiya qilishda duch kelinayotgan muammolar – moliyalashtirish, texnik bilim yetishmovchiligi, importga bog'liqlik – haqida fikr bildiradi. A. To'xtasinov (2022) esa qayta tiklanuvchi energiya manbalarini iqtisodiy tizimga kiritish natijasida resurslar tanqisligini bartaraf etish va sanoatni ekologik muvozanatda saqlash imkoniyati borligini asoslab bergan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda yashil texnologiyalar va ularning iqtisodiy tizimga ta'sirini o'rganish uchun bir qator ilmiy-metodologik yondashuvlar qo'llanilgan. Tadqiqotda asosiy e'tibor tizimli tahlil, empirik tahlil va solishtirish metodlariga qaratilgan. Ushbu metodologik yondashuvlar yashil texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy va ekologik samaradorligini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.



Birinchi metodologik yondashuv sifatida tizimli tahlil tanlangan. Tizimli tahlil yashil texnologiyalarni iqtisodiy tizimda qanday amalga oshirish, ularning iqtisodiy va ekologik jihatlarini bir butun sifatida ko'rib chiqish imkonini yaratadi. Bu yondashuv yashil texnologiyalarni o'rganishda turli omillarni, jumladan, iqtisodiy tizimlar, ekologik barqarorlik, ijtimoiy rivojlanish va texnologik yondashuvlarni birlashtiradi. Tizimli tahlil yordamida yashil texnologiyalarning joriy etilishi va ularning iqtisodiy o'sishga, resurslarni boshqarishga va ekologik barqarorlikka ta'siri kompleks tarzda o'rganildi.

Empirik tahlil metodidan foydalanilgan. Tadqiqotda yashil texnologiyalarni qo'llash bo'yicha mavjud ma'lumotlar, jumladan, yashil texnologiyalarni rivojlantirish va joriy etish tajribalari o'rganilgan. Bu jarayonlarda mamlakatlararo taqqoslash va O'zbekistonda yashil texnologiyalarni joriy etish bo'yicha amaliyotlar tahlil qilindi. Empirik ma'lumotlar orqali yashil texnologiyalarni iqtisodiy tizimga tatbiq etishning ijobiy va salbiy ta'sirlari, shuningdek, ularning ishlab chiqarish jarayonlari va barqaror rivojlanishdagi o'rni ko'rsatilgan.

Shuningdek, solishtirish metodidan ham keng foydalanildi. Tadqiqotda, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasida yashil texnologiyalarni joriy etish bo'yicha mavjud tajribalar taqqoslandi. Ushbu metod yordamida, yashil texnologiyalarni joriy etishdagi muvaffaqiyatlar, qiyinchiliklar va o'zgarishlarga olib kelgan omillar o'rganildi. Taqqoslash orqali O'zbekiston uchun moslashtirilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, tadqiqotda iqtisodiy va ekologik modellash metodlari ham qo'llanildi. Ushbu metodlar orqali yashil texnologiyalarning iqtisodiy tizimga ta'sirini matematik modellar orqali tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Modellash yordamida texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi, ularning ijtimoiy va ekologik foydalari, resurslarni tejash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi roli aniqlandi.

Tadqiqotda shuningdek, keng qamrovli statistik tahlil ishlatilgan. Yashil texnologiyalarni joriy etish bo'yicha statistika va ma'lumotlar tahlil qilinib, iqtisodiy tizimda yuzaga keladigan o'zgarishlar va natijalar kuzatildi. Ushbu tahlil yordamida, yashil texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi, ularning ish o'rinlari yaratish, energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni kamaytirishdagi roli o'rganildi.

Shu bilan birga, tadqiqotda yashil texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining ta'siri va iqtisodiy rag'batlar tizimi ham ko'rib chiqildi. Yashil texnologiyalarni iqtisodiy tizimga joriy etishdagi davlatning roli va strategik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda bu borada turli mamlakatlarning siyosiy yondashuvlari va ularning muvaffaqiyatlari o'rganilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida yashil texnologiyalar va ularning iqtisodiy tizimga ta'sirini o'rganish orqali bir qator muhim natijalarga erishildi. Yashil texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy tizimda bir qator ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yashil texnologiyalarning iqtisodiy tizimga ta'siri nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Yashil texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarida energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va resurslarni tejashga erishish mumkin. Ushbu jarayonlar, o'z navbatida, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

Empirik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, yashil texnologiyalarni rivojlantirish va iqtisodiy tizimga joriy etish orqali energiya samaradorligini oshirish va resurslarni tejash bo'yicha sezilarli yutuqlar qayd etilgan. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, jumladan, quyosh va shamol energiyasidan foydalanish, energiya iste'molini sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi. Bu esa nafaqat atrof-muhitni himoya qilishga, balki iqtisodiy tizimda yangi ish o'rinlarini yaratishga, shuningdek, energiya sohasidagi importga bog'liqlikni kamaytirishga ham xizmat qiladi.

Yashil texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy foydalari nafaqat sanoat sektori bilan bog'liq, balki qishloq xo'jaligi va transport sohaslarida ham sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Yashil texnologiyalarni ishlab chiqarishda qo'llash, resurslarni samarali boshqarish va chiqindilarni kamaytirish orqali, iqtisodiyotning barcha sohaslarida samaradorlikni oshirish mumkin. Masalan, aqlli qishloq xo'jaligi texnologiyalari va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar fermerlarga o'z ishlab chiqarishini optimallashtirishda yordam beradi, shu bilan birga ekologik ta'sirni kamaytiradi.


Shuningdek, xalqaro tajribalar tahlili orqali yashil texnologiyalarni rivojlantirishda yuzaga keladigan muammolar va ularga qarshi kurashish usullari ham o'rganildi. Tadqiqotda Yevropa Ittifoqi va AQSh kabi rivojlangan mamlakatlarning yashil texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha muvaffaqiyatli tajribalari o'rganildi. Ushbu tajribalardan kelib chiqqan holda, O'zbekistonga moslashtirilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Xususan, davlat tomonidan yashil texnologiyalarni rivojlantirish uchun qo'shimcha moliyaviy rag'batlar, soliq imtiyozlari va ilg'or texnologiyalarni joriy etish uchun qulay sharoitlar yaratish zarurati ta'kidlandi.

Yashil texnologiyalarni rivojlantirishda yuzaga keladigan asosiy muammolardan biri – texnologiyalarni joriy etish uchun zarur bo'lgan katta investitsiyalar va uzoq muddatli iqtisodiy foydalar. Yashil texnologiyalarni joriy



etish uchun davlat va xususiy sektorning hamkorligi zarur. Investitsiyalarni jalb qilish va yangi texnologiyalarni joriy etish jarayonini tezlashtirish uchun davlat siyosati muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda, shuningdek, yashil texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishdagi ijtimoiy va iqtisodiy to'siqlarni bartaraf etish uchun strategik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil texnologiyalar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Yashil texnologiyalarni iqtisodiy tizimga muvaffaqiyatli joriy etish, resurslarni samarali boshqarish va atrof-muhitni himoya qilish orqali uzoq muddatli rivojlanishning barqarorligini ta'minlash mumkin. Yashil texnologiyalarni rivojlantirish va joriy etishda davlat siyosatining, xususiy sektorning va xalqaro hamkorlikning roli juda muhimdir.



1– rasm. Yashil texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi

Yashil texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligini ko'rsatuvchi grafikni tahlil qilishda, energiyani tejash, chiqindilarni kamaytirish, resurslarni tejash, ish o'rinlarini yaratish va atrof-muhitni himoya qilish kabi omillarning iqtisodiy tizimga ta'siri aniq ko'rinadi. Grafikda energiyani tejashning ta'siri 80% ni tashkil etadi, bu esa yashil texnologiyalar orqali energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu jarayonlar, o'z navbatida, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga va ekologik izni qisqartirishga yordam beradi. Chiqindilarni kamaytirishning ta'siri 65% ni tashkil etadi, bu yashil texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarida chiqindilarni kamaytirish va resurslarni qayta ishlash imkoniyatlarini yaratishi orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon nafaqat atrof-muhitni himoya qiladi, balki iqtisodiy foydalar keltiradi, chunki chiqindilarni boshqarish tizimlarining samarali ishlashi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. Resurslarni tejashning ta'siri 75% ni tashkil etadi, bu yashil texnologiyalar orqali tabiiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Yashil texnologiyalarni joriy etish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya iste'molini kamaytirishga va an'anaviy energiya manbalariga bo'lgan bog'liqlikni qisqartirishga yordam beradi. Ish o'rinlarini yaratishning ta'siri 60% ni tashkil etadi, bu esa yashil texnologiyalarni rivojlantirish va ishlab chiqarishda yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarini yaratadi. Yashil texnologiyalarni joriy etish orqali yangi ish joylari va malakali ishchi kuchi yaratiladi, bu iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni oshiradi. Atrof-muhitni himoya qilishning ta'siri 90% ni tashkil etadi, bu esa yashil texnologiyalar orqali chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni tejash orqali ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Yashil texnologiyalarni joriy etish, nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki atrof-muhitni himoya qilishda ham katta rol o'ynaydi. Bu natijalar yashil texnologiyalarni iqtisodiy tizimga muvaffaqiyatli joriy etishning ijobiy ta'sirini ko'rsatadi va ularga bo'lgan ehtiyojni yanada oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiy tizimda bir qator ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yashil texnologiyalar nafaqat atrof-muhitni himoya qilish, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Energiyani tejash, resurslarni samarali boshqarish, chiqindilarni kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish orqali yashil texnologiyalar iqtisodiy o'sishni barqarorlashtiradi. Yashil texnologiyalarni joriy etish nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarida samaradorlikni oshiradi, balki yangi ish o'rinlarini yaratish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Grafikda ko'rsatilgan energiyani tejashning yuqori foizi va atrof-muhitni himoya qilishning eng yuqori ta'siri yashil texnologiyalarning iqtisodiy



tizimga bo'lgan samarali ta'sirini tasdiqlaydi. Yashil texnologiyalarni rivojlantirish orqali, resurslardan samarali foydalanish va ekologik xavflarni kamaytirish nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki atrof-muhitni himoya qilishni ham ta'minlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqotda yashil texnologiyalarni rivojlantirishda yuzaga keladigan ba'zi muammolar, masalan, yuqori dastlabki investitsiyalar va texnologiyalarning uzoq muddatli iqtisodiy foydalari bilan bog'liq muammolar ko'rsatilgan. Bunday muammolarni hal qilish uchun davlat siyosatining, xususiy sektorning va xalqaro hamkorlikning roli juda muhimdir. Tadqiqotning natijalari yashil texnologiyalarni rivojlantirish va ularni joriy etish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ekologik barqarorlikni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash mumkinligini ko'rsatadi. Buning uchun investitsiyalarni jalb qilish, samarali siyosat va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish zarur. Yashil texnologiyalarni joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar, davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash, yangi texnologiyalarni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari yashil texnologiyalarni rivojlantirishning kelajakda iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sachs, J. D. (2015). The Age of Sustainable Development. Columbia University Press.
2. Jackson, T. (2009). Prosperity Without Growth: Economics for a Finite Planet. Earthscan.
3. Meadows, D. H., Meadows, D. L., Randers, J., and Behrens, W. W. (1972). The Limits to Growth. Universe Books.
4. Solow, R. M. (1991). Sustainability: An Economist's Perspective. The Economic Journal, 101(404), pp. 1-18.
5. Pearce, D., Markandya, A., and Barbier, E. (1989). Blueprint for a Green Economy. Earthscan.
6. United Nations (2012). The Future We Want: Outcome Document of the United Nations Conference on Sustainable Development (Rio+20). United Nations.
7. Stern, N. (2006). The Economics of Climate Change: The Stern Review. Cambridge University Press.
8. Goodall, C. (2009). How to Live a Low-Carbon Life: The Individual's Guide to Tackling Climate Change. Earthscan.
9. Daly, H. E., and Farley, J. (2011). Ecological Economics: Principles and Applications. Island Press.
10. OECD (2011). Towards Green Growth. OECD Publishing.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
